__________________ hokimligi maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi ________________ maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi __-umumiy o‘rta ta’lim maktabi iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi

_______________________ning

20__-20__-o‘quv yilida 9-sinflar uchun iqtisodiy bilim asoslari fanidan

# DARS ISHLANMALARI

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘_______ _______________________**

**20__-20__-o‘quv yili 9-sinflar uchun _____________ fanidan taqvim mavzu rejasi**

| № | O‘tiladigan mavzular rejasi | Soati | Dars o‘tkazish muddati | Dars o‘tkazilgan sana |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Kirish. Tadbirkorlik. /Firma va uning turlari | 1 | | |
| 2. | Aksiyadorlik jamiyati. /Firmani tashkil qilish | 1 | | |
| 3. | Firma mablag‘lari va xarajatlari./ Yalpi daromad, foyda va zarar | 1 | | |
| 4. | **Takrorlash./** Iqtisodiy faoliyat tahlili. | 1 | | |
| 5. | Firmani boshqarish – menejment | 1 | | |
| 6. | Marketing. /Ishlab chiqarish va ekologiya | 1 | | |
| 7. | Davlatning iqtisodiy vazifalari./ Davlat byudjeti | 1 | | |
| 8. | Bank tizimi. /Davlatning iqtisodiy siyosati. | 1 | | |
| 9. | **Nazorat ishi-1/** Daromad solig‘i. | 1 | | |
| 10. | Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i./ Aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i. | 1 | | |
| 11. | Asosiy makro iqtisodiy ko‘rsatkichlar./Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish. | 1 | | |
| 12. | O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyati. **/Takrorlash** | 1 | | |
| 13. | Inflyatsiya va uning turlari./ Inflyatsiya oqibatlari. | 1 | | |
| 14. | Ishchi kuchi bozori va ishsizlik./ Ijtimoiy himoya vositalari. | 1 | | |
| 15. | Xalqaro savdo. /Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. | 1 | | |
| 16. | Valyuta kursi. /Jahon iqtisodiyoti muammolari | | | |
| 17. | Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi./ **Nazorat ishi-2** | 1 | | |

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Tadbirkorlik.**
**Darsning maqsadi:**
**Ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o‘stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O‘zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo‘lib voyaga yetkazish.
**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.
**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a’zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.
**Kommunikativ kompetensiyasi:**
– o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish;
– jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o‘z pozitsiyasini himoya qila olish;
– iqtisodiy bilim asoslariga oid umum tomonidan qabul qilingan iqtisodiy atamalar mazmunini bilish;
– iqtisodiy ta’limga oid formulalarni tushuntira olish.
**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**
– mavjud axborot manbalaridan iqtisodiyotga oid ma’lumotlarni topa olish;
– statistik ma’lumotlar asosida iqtisodiy grafiklar, diagrammalar, jadvallar,chizmalarni tayyorlay olish;
– tovarning shtirx kodini o‘qiy olish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.
**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san’at turlariga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.
**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.
**Darsning metodi:** og‘zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| Jami | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.
**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy

vazifasini  bajarilishini ko‘zdan kechirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Tadbirkorlikdeganda kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida o‘z mablag‘lari, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati tushuniladi. Tadbirkorlik, boshqacha qilib aytganda, ishbilarmonlik yoki biznes deb ham yuritiladi. Bunday faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana oladigan insonlarni tadbirkorlik layoqati bor kishilar yoki tadbirkor, ishbilarmonyoki biznesmenlardeb atashadi.

Tadbirkorlik—kishilarning foyda olish maqsadida, tavakkalchilik asosida, o‘z mablag‘i, mulki, bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

Tadbirkorlar– foyda olish maqsadida tovar va xizmatlar yaratish uchun tavakkalchilikni zimmasiga oladigan kishilar.

Tadbirkorlik layoqati bor kishi:

– boshlang‘ich mulk va mablag‘ topib, uni ishga sola olishi;
– erkin iqtisodiy faoliyat yurita olishi;
– foyda olishga intilishi va tavakkal qila olishi;
– mehnatsevar, g‘ayratli va tashabbuskor bo‘lishi;
– mas’uliyatdan qochmasligi;
– qonunlarga rioya qilgan holda ish yuritishi;
– halol raqobat tarafdori bo‘lishi lozim.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri xususiy mulkchilikka asoslangan erkin raqobat muhiti yaratilishidir.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan faoliyatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida odamlarning tadbirkorlik layoqati – tabiiy, kapital va mehnat omillari bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanadi. Chunki ishlab chiqarishning xuddi shu omili qolgan uch omilni birlashtirish imkonini beradi. Tadbirkorlik jamiyat uchun kerak, chunki bu faoliyat natijasida yangi, qo‘shimcha ish joylari yaratiladi. Tadbirkorlik nafaqat iste’molchilar uchun, balki davlat uchun ham zarur va foydali faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan korxona firmadeb ataladi. Firma turli xil tovar va xizmatlarni foyda olish uchun ishlab
chiqaradi. Firmalar, ko‘pincha, xususiy mulk asosida tashkil qilinadi.

Firmalar qanday mulk asosida tashkil qilinishi, kim tomonidan qanday boshqarilishi, firma foydasi qanday taqsimlanishi va firma faoliyatining natijasiga kim va qanday javob berishiga qarab turli shakllarda bo‘ladi.

Tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan korxona firmadeb ataladi. Firma turli xil tovar va xizmatlarni foyda olish uchun ishlab chiqaradi. Firmalar, ko‘pincha, xususiy mulk asosida tashkil qilinadi. Firmalar qanday mulk asosida tashkil qilinishi, kim tomonidan qanday boshqarilishi, firma foydasi qanday taqsimlanishi va firma faoliyatining natijasiga kim va qanday javob berishiga qarab turli shakllarda bo‘ladi. Xususiy firmaning mulkdori yakka shaxs bo‘lib, firma uning mulki va mablag‘i asosida tashkil qilinadi va bevosita shu mulkdor tomonidan boshqariladi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Rasmlardagi odamlar tadbirkorlikning qanday turlari bilan shug‘ullanadilar? Bu odamlarning qanday umumiy va o‘ziga xos fazilatlari bor deb o‘ylaysiz?
2. Siz tadbirkor kishilardan kimlarni bilasiz? Ular qanday faoliyat bilan shug‘ullanadilar? Ular qanday kishilar?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ _____________
(imzo) (sana)

| Sana: | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sinf: | | | | |

**Mavzu: Aksiyadorlik jamiyati.**
**Darsning maqsadi:**
**Ta’limiy maqsad:** o‘quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, iqtisodiy tafakkurni o‘stirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikr yuritib, jonajon O‘zbekistonimizning aqlli, dono, bilimga chanqoq farzandi bo‘lib voyaga yetkazish.
**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish, Vatanimizga mehr-muhabbat hislarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish, o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.
**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a’zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.
**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**
– halollik, to‘g‘rilik, tejamkorlik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
– kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
– o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil iqtisodiy qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tuta olish.
**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**
– xaridor, mijoz bilan faoliyat yurita olish;
– ta’lim jarayonida faol ishtirok etish;
– ta’lim-muassasasi jihozlariga, moddiy va ma’naviy, tabiiy resurslarga oqilona munosabatda bo‘lish.
**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interfaol.
**Dars jihozi:** tarqatma materiallar, darlik, tarsviriy san’at turlariga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, rasm daftari.
**Texnik jihozlar:** proyektor, kompyuter, multimedia, slaydlar.
**Darsning metodi:** og‘zaki, suhbat, amaliy va savol-javob.
**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.
**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.
**Darsning borishi:**

| № | Bo‘limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| 1 | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2 | O‘tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |
| 3 | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |
| 4 | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5 | O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| 6 | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I. Tashkiliy qism:** salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish, uy vazifasini bajarilishini ko‘zdan kechirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Mas’uliyati cheklangan firmalar yirik korxonalar miqyosida — aksiyadorlik jamiyati ko‘rinishida tashkil qilinadi. Aksiyadorlik jamiyati boshlang‘ich nizom jamg‘armasi hajmiga teng miqdorda o‘z aksiyalarini chiqaradi va sotadi. Bu aksiyani sotib olgan har bir kishi jamiyatning aksiyadoriga aylanadi. Jamiyat aksiyadorga har yilgi foydasidan sotib olgan aksiyasiga mos ravishda haq — dividendto‘laydi. Aksiyadorlik jamiyatini chet ellarda aksiyadorlik kompaniyasiyoki korporatsiyalar deb ham atashadi. Agar aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari istalgan shaxsga sotilsa, bunday jamiyat ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati deb, agar faqat oldindan belgilab qo‘yilgan shaxslar guruhiga (masalan, jamiyatning ta’sischilari yoki xodimlariga) sotilsa, u yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati deb ataladi. Birinchi aksiyadorlik jamiyati XVI asrda Niderlandiyada tashkil qilingan “Ost-Ind” kompaniyasi bo‘lib, u Hindiston bilan Yevropa o‘rtasida savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Aksiyador sotib olgan aksiyalari soniga qarab, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ovoz berish yo‘li bilan qatnashishi mumkin. U qancha aksiya sotib olgan bo‘lsa, aksiyadorlik jamiyati umumiy majlisida shuncha ovozga ega bo‘lib, u yoki bu qarorni qabul qilishda, jamiyat rahbarlarini saylashda o‘z ovozi bilan ta’sir etishi mumkin. Shu sabab, aksiyadorda aksiya qancha ko‘p bo‘lsa, u korxonani boshqarish masalalariga shuncha ko‘proq ta’sir o‘tkaza oladi. Agar aksiyador aksiyalarning yarmidan ko‘pini, ya’ni aksiyalar nazorat paketini qo‘lga kiritsa, u korxonaning yakka xo‘jayiniga aylanadi. Chunki, aksiyadorlar umumiy majlisida har qanday qarorning qabul qilinishida uning fikri — ovozi hal qiluvchi bo‘lib qoladi.

Aksiyadorlik jamiyati— nizom jamg‘armasi aksiyalarini sotish yo‘li bilan shakllanadigan, mas’uliyati cheklangan yirik firma.

Aksiya— firma nizom jamg‘armasiga hissa qo‘shilganini tasdiqlovchi va egasiga firma foydasidan ma’lum daromad olish huquqini beruvchi hujjat — qimmatbaho qog‘oz.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati — aksiyalari istalgan shaxsga sotiladigan jamiyat.

Yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati — aksiyalari faqat oldindan belgilab qo‘yilgan shaxslar guruhiga sotiladigan jamiyat.








Birinchi aksiyadorlik jamiyati XVI asrda Niderlandiyada tashkil qilingan “Ost-Ind” kompaniyasi bo‘lib, u Hindiston bilan Yevropa o‘rtasida savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Aksiyador sotib olgan aksiyalari soniga qarab, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ovoz berish yo‘li bilan qatnashishi mumkin. U qancha aksiya sotib olgan bo‘lsa, aksiyadorlik jamiyati umumiy majlisida shuncha ovozga ega bo‘lib, u yoki bu qarorni qabul qilishda, jamiyat rahbarlarini saylashda o‘z ovozi bilan ta’sir etishi mumkin.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. 1- rasmda aksiyalar tasvirlangan. Ular qanday qog‘ozlar? Bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

2. 2- rasmdagi fond indekslari haqida televideniye orqali berilgan ma’lumotlarni eslay olasizmi? Ularning qaysi birini bilasiz va u haqida nimalarni ayta olasiz?

**V. Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uygа vazifani e’lon qilish:** yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

**O‘IBDO‘:** ______________________ ______________ _____________
(imzo) (sana)

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

# Zokirjon Admin bilan

***90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.***

***Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi***

**44 listdan iborat iqtisod fanidan 9-sinf konspektni to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**

Telegram kanalimiz:

**@Maktablar_uchun_hujjatlar**

**UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**




## DIQQAT!!!

**Sizga bu OMONAT qilib beriladi.**
**To‘liq holda olganingizdan so‘ng:**
**Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.**
**Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.**
**Internet orqali veb-saytlarga joylamang.**
**Kanal va gruppalarga tarqatmang.**

**OMONATGA HIYONAT QILMANG.**

## *Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!*

### *Bizda maktablar uchun  quydagi hujjatlar mavjud.*

1. **1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
2. **1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari**
3. **Sinf rahbar hujjatlari**
4. **Metodbirlashma hujjatlari**
5. **Ustama hujjatlari**
6. **1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
7. **1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
8. **Maktab ish hujjatlari**
9. **Direktor ish hujjatlari**
10. **MMIBDO‘ ish hujjatlari**
11. **O‘IBDO‘ ish hujjatlari**
12. **Psixolog hujjatlari**
13. **Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari**
14. **Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
15. **Besh tashabbus hujjatlari**
16. **Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**